

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR KENGASHINING  
FARMOYISHI**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
MINISTRLER KEÑESINIŇ  
BIYLIGI**

2023 - yil 30 - avgust

190-13-0-F/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 73-moddasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Axborot xizmati rahbari B.Xojanovning 2023-yil 14-iyuldagi bildirishnomasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Ishlar Boshqarmasining 17-avgustdagi 10-10/18-08/52-son xatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yil 17-avgustdagi PC/12-02/8319-son xulosasiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining yangi veb-saytini yaratish, xosting berish, internetga joylashtirish maqsadida:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi (R.Sultanov) mazkur Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining yangi veb-saytini yaratish maqsadida jami 30 150 000 (o'ttiz million bir yuz ellik ming ) so'm mablag'ini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining zaxira jamg'armasi hisobidan Vazirlar Kengashining Ishlar Boshqarmasiga qonunchilikka asos ajratish choralarini ko'rsin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Ishlar boshqarmasi rahbari (A.Ismailov) ajratilgan mablag'larni qonunchilikda belgilangan tartibda va asoslarda maqsadli yo'naltirilishini ta'minlasin.

3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi (B.Utambetov)dan ajratilgan mablag'larning qonunchilikda o'rnatilgan tartibda va asoslarda maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o'rnatish so'ralsin.

4. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari R.Nurazizov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston  
Respublikasi Vazirlar  
Kengashi Raisi**



**F. Ermanov**